

**REABILITOLOGIYA VA SPORT TIBBIYOTI FANINI O'QITISHDA
ZAMONAVIY INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Xamroyeva Durdona Maxmud qizi

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

durdonaxamrayeva@mail.ru

Annotatsiya. Reabilitologiya, sport tibbiyoti fani bo‘lajak shifokorlarga inson hayoti davomida o’tkazilgan kasalliklar, jarohatlar natijasida ortirgan yoki tug’ma bo’lgan nuqsonlar natijasida yoqotilgan funksiyalarni tikash, bemorlarni ijtimoiy hayotga moslashuvchanligini va hayot sifatini oshirish, klinik fikrlash, axoli orasida sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish, kasallik va uning belgilariga asoslangan xolda bemorlarga to‘g’ri tashxis quyish va reabilitatsiya muolajasi samaradorligini tekshirish uchun zamin yaratib beradi. Bundan tashqari reabilitologiya, sport tibbiyoti fani talabalar nazariy bilimlarini chuqurlashtirib bemor holatini to‘g’ri baholashni, asosiy va yondosh kasalliklarni inobatga olgan holda bemorlarga to‘g’ri reabilitatsiya xaritasini tuzishni o’rgatadi. Reabilitologiya, sport tibbiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy interaktiv usullardan foydalanish talabalar bilimini oshirishda va olingan bilimlarini amaliyotda qo‘llashga muxim axamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, faoliyat, ta’lim, sifat, klinik, laboratoriya, diagnostika, texnologiya

XXI asrda pedagogdan o‘z kasbiy malakasini muttasil takomillashtirib borish bilan birga innovatsion pedagogik texnologiyalar yaratish, ularni ta’lim jarayonida qo‘llashga layoqatli bo‘lish talab etilmoqda. Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi kasbiy malakasining eng muhim ko‘rsatkichiga aylandi. Pedagogning innovatsion faoliyati ijodiy izlanishlari, ta’lim shakli va mazmunini takomillashtirish yo‘lidagi ilg‘or g‘oyalar yaratish, yangiliklar kashf etish salohiyatini namoyon qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida o‘quvchi-talabalarda ham yaratuvchilik, ijodkorlik, mustaqil fikrlash ta’lim maqsadlariga o‘z izlanishlari, ongli ijodiy munosabat orqali erishish layoqatini tarkib toptirish ko‘zda tutiladi.

Ta’limning interfaol metodlari – bu shaxs psixologiyasi, o‘quv psixologiya, kattalar pedagogikasining eng yangi tamoyillariga asoslangan mashq va treninglar orqali o‘tadigan ta’lim metodidir. Interfaol metodlarda ishtirotkchi shaxsi asosiy markazda bo‘ladi. Trening jarayonida uning layoqat va sifatlari rivojlantiriladi.

Faol o‘qitish — bu, eng avvalo, faol deb atalgan o‘qitishning yangi shakllari, usullari va vositalaridir. O‘qitish jarayonlarini faollashtirishda texnik vositalardan kompleks va maqsadli foydalanish katta ahamiyatga ega, biroq o‘quv jarayonida asosiy narsa — bu talabani faolligi, professional bo‘lish istagidir. Faol usullar talabalarning

barcha auditoriya mashg‘ulot turlarini qamrab oladi. Talabalarni faol o‘qitishning shakllanishi — bu bilish faoliyatini rivojlantirish vositalaridan biridir. Amaliyotda muammoli va rivojlantiruvchi o‘qitish qo‘llanilishi natijasida “faol” deb atalgan usullar paydo bo‘ldi. Pedagogika nuqtayi nazaridan, talabalarining bilish faolligini rivojlantirish vositasi sifatida faol o‘qitish usullarini quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin: dasturlashtirilgan o‘qitish usullari, muammoli o‘qitish usullari, interaktiv (kommunikativ) o‘qitish usullari. Mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchidan, odatda kitoblardan o‘qilgan yoki allaqachon ma’lum bo‘lgan haqiqatlarning bayon qilinadigan passiv shakliga qaraganda, ancha ko‘proq faollik va ijodkorlik talab etiladi. Interaktiv usullar eng katta nafaqat o‘qituvchilik, balki tarbiyaviy ta’sirga ham ega bo‘ladi, agar o‘qituvchi muhokama jarayoniga nafaqat ilmiy asoslangan fikrlar, balki shaxsiy munosabatini, axloqiy pozitsiyasini ham bildirsa. Talabalar muhokamasida o‘qituvchining ishtirok shakllari turlicha bo‘lishi mumkin, lekin hech qachon o‘z fikrini tiqishtirish emas, balki masalan, muammoli savollar orqali talab qilinadigan mahsuldor fikrlash va ijodiy haqiqat izlash orqali bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘z fikrini faqat talabalarining fikrlaridan xulosa chiqarish va xatoli fikrlarni asosli ravishda rad etish tarzida bildiradi. Biroq, bu pozitsiya talabalar fikri bilan mos kelishi mumkin, chunki ular o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari natijasida paydo bo‘lgan. Aynan shu tarzda nazariy masalalar muhokamasining mazmunli, intellektual-bilish tomonini yo‘naltirish, hamda birgalikda mahsuldor faoliyatni tashkil qilish, shu orqali talabalarining shaxsiy pozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatish, ularning o‘quv faoliyatini o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga aylantirish mumkin.

Faol o‘qitish usullari talabalarining o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida faol fikrloviy va amaliy faoliyatga undaydi. Faol o‘qitish usullarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi shuni anglatadiki, o‘qitish oldida quyidagi yangi vazifalar turibdi: talabalarni bilim bilan ta’minlashdan tashqari, bilim olishga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlarni, ijodiy fikrlash, mustaqil aqliy mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Faol o‘qitish oddiy o‘qitishdan farq qiladi, chunki u talabalar fikrloviy faoliyatini faollashtiradi, bu faollashtirishni talabalar xohishidan qat’i nazar maxsus sharoitlar yaratish orqali amalga oshiradi. Faol o‘qitish — bu o‘quv jarayonini shunday tashkil etish va olib borishki, bu o‘quvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini har tomonlama faollashtirishga qaratilgan bo‘ladi. O‘qitishni faollashtirish o‘qitish shakl va usullarini takomillashtirish orqali, shuningdek, o‘quv jarayonini umumiylash tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ular, talabalar bilish faoliyatini rag‘batlantiradi va asosan muloqot asosida quriladi. O‘qituvchining mahorati shundaki, u turli xil o‘qitish usullaridan foydalanadi. Faol o‘qitish usullarini qo‘llash o‘qituvchiga guruhda ijobiy muhit yaratish imkonini beradi, bu esa mashg‘ulotda erkin muloqot muhitini hosil qiladi.

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida talabalarning tayyorgarlik sifatini oshirish bo‘yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Bunda o‘quv motivatsiyasini yaxshilaydigan didaktik shart-sharoitlarni yaratish zarurati paydo bo‘ldi. O‘qitishning psixologik nazariyasining asosi — bu o‘qitiluvchining faol bilish faoliyatidir, u ijodiy fikrlashni shakllantiradi, bu esa faoliyat jarayonida orttirilgan professional kompetensiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogikadagi faol o‘qitish usullaridan biri bu interaktiv metod bo‘lib, u o‘zaro ta’sir qilish yoki biror narsa (masalan, kompyuter) yoki kim bilandir (inson) suhbat yoki muloqot rejimida bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Interaktiv o‘qitish — bu, eng avvalo, muloqot asosidagi o‘qitish bo‘lib, uning davomida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro ta’sir amalga oshiriladi. Uning mohiyati shundaki, o‘quv jarayoni shunday tashkil etiladiki, guruhdagi deyarli barcha talabalar nafaqat bilish jarayoniga jalg etiladi, balki ular o‘zlarini bilgan va o‘ylagan narsalar ustida tushunish va refleksiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Interaktiv o‘qitish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin: evristik suhbat, munozara usuli, “aqliy hujum”, “dumaloq stol” usuli, ishbilarmonlik o‘yini usuli va boshqa ayrim usullar. Albatta, ularning har biri nafaqat qiymatga ega, balki o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Masalan, evristik suhbat — bu Sokrat uslubidagi “evristika” (topaman, ochaman, izlayman) o‘qitish usulidan kelib chiqqan metod hisoblanadi. Evristik suhbat o‘zining psixologik mohiyatiga ko‘ra, jamoaviy fikrlash yoki muammoni hal qilish maqsadida olib boriladigan suhbat sifatida qabul qilinadi, shuning uchun u pedagogikada muammoli o‘qitish usuli deb hisoblanadi.

Munozara esa — bu o‘quv dasturidagi nazariy masalalarni erkin tarzda muhokama qilish uchun maxsus dasturlashtirilgan usul bo‘lib, odatda savol qo‘yishdan boshlanadi. U guruh mashg‘ulotlarida, seminar, seminar-amaliy mashg‘ulotlarida, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida qo‘llaniladi, bu yerda talabalar o‘z fikrini bildirishi kerak bo‘ladi. Ba’zan munozarali ma’ruzalar ham o‘tkaziladi, bunda lektor materialni bayon qilish jarayonida auditoriyaga alohida savollar bilan murojaat qiladi.

Klinik holatga asoslangan innovatsion o‘qitish metogikasi- klinik fanlarni o‘qitishda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bu metodika talabalarni dars jarayonida aktiv qatnashishlarini ta’minlab, ularning fanga nisbatan qiziqishlarini oshiradi. Shifokor uchun muhim bo‘lgan klinik fikrlashni rivojlantiriladi. Bunda pedagog ma’lum bir klinik vaziyatli masalani o‘rtaga tashlaydi. Talabalar jamoaviy usulda ushbu masalaga yechim topishlari kerak bo‘ladi. Bu o‘z o‘zidan talabalarning jamoa ichida ishlashga, fikr yuritishga, o‘z fikrini to‘liq bayon qilishga va jamoa a’zolari tomonidan o‘z fikriga nisbatan tanqidiy fikrni to‘g’ri qabul qilishga o‘rgatadi.

Aqliy hujum – pedagog qo‘ygan savol yoki muammo yuzasidan har bir tinglovchi o‘z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o‘quv uslubidir. Uslub mohiyati: «Bir kalla yaxshi, ikkita kalla undan yaxshi» prinsipi bo‘yicha pedagog tomonidan belgilangan

vazifa va savollar yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga jamlay olishda, istisno tariqasida ta’lim oluvchining barcha fikrlari, jumladan aytarli to‘g‘ri bo‘lmaganliklari ham inobatga olinadi». Bayon etilgan fikrlar keyingi tahlilda tinglovchilarning qo‘yilgan savol yoki muammoni to‘g‘ri tushunishlariga imkon beradi (tinglovchilarga savol beriladi, barcha g‘oya va takliflar yozib boriladi).

“Aqliy hujum” usuli o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ochiq va erkin muloqotni taminlab beradi. Bunda o‘qituvchi talabalarga malum bir patologik xolatga doir situatsion masala o‘qib eshittiradi va har bir talaba ushbu situatsion masalada keltirilgan malumotlarga asoslanib uz fikrini og‘zaki yoki yozma ravishda bayon etadi. Bu usul xam talabalarga dars jarayonida o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashlari uchun, klinik fikrlash doiralarini kengaytirish uchun yaxshi zamin yaratib beradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish talabalarning qiziqishini, o‘rganish motivatsiyasini, amaliy ko‘nikmalarni, klinik fikrlashni rivojlantirishga olib keladi. O‘qitishning kompetensiyaga asoslangan yondashuvini to‘liq amalga oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan doimiy izlanish va ijodiy faoliyat zarur. Kompetensiyanı shakllantirish va rivojlantirish uchun kafedra faol o‘quv va kognitiv faoliyatni boshlaydigan, shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradigan va talabaning o‘quv jarayonini individuallashtirishga imkon beradigan o‘quv texnologiyalaridan foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyot

1. B.T.Khalmukhamedov, N.M.Nurillaeva Aspects of teaching students telemedicine skills in medical universities, Central Asian Journal of Medicine. № 4 / 2022, p-163-171.
- 2.Огольцова Е.Г, Хмельницкая О.М., «Формирование активного обучения как средство развития познавательной деятельности студентов» // Развитие качества высшего профессионального образования в современных условиях. Материалы региональной научно-практической Интернет конференции. – 2009 г. – С. 129-133.